



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz [@zarnews_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

2023-yil 9-fevral, payshanba,
16 (23.737)-son

KUN
HIKMATI

Do'sni
yo'qotish uni
topa olmaslikdan
og'irroq
iztirobdir

Davlat dasturi loyihasi muhokamada

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lif yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni loyihasi keng jamoatchilik muhokamasi uchun hukumatning regulation.gov.uz portali da e'lon qilindi.

Dastur loyihasi 309 band, 7 ustuvor yo'nalishdan iborat. Xususan, 22 banddan iborat "Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish" birinchini yo'nalish sifatida belgilangan.

Bundan tashqari, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyinlari taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish borasida ham qator vazifalar ko'zda tutilmoqda.

Milli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlari ta'minlash ham loyihada ko'zda tutilgan yo'nalishlardan biri.

Loyihadagi yana bir yo'nalish - adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqishdani iborat.

Milli manfaatlardan kelib chiqqan holda umumiy bashariy muammolarga yondashish masalasida loyihada qator takliflar o'rinni olib.

Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borishga qaratilgan yettingchi yo'nalish ham ko'pchilikni qiziqitirishi, jamiyatimiz hayotida muhim o'rinni tutishi shubhasi.

Barcha yurdoshlarimiz joriy yilgi Davlat dasturi loyihasi muhokamasi faol ishtirok etib, o'z takliflarini bildirishlari mumkin.

Bildirilgan taklif va tashabbuslar dasturda belgilanadigan chora-tadbirlar sifatli, keng jamoatchilik talabari asosida bo'lismish muhim ahamiyat kasb etadi.

7-fevralda e'lon qilingan hujjat loyihasi 17-fevralga qadar muhokamada bo'ladi.



KUN QAHRAMONLARI

Joriy yilning 6-fevral kuni Turkiyaning janubi-sharqiy qismidagi viloyatlarda kuchli zilzila yuz berib, minglab odamlar qurban bo'lgani va jiddiy jarohatlar oлgani qardosh xalqlar qatori, o'zbekistonliklarni ham xavotirga soldi.

Turkiyaga insonparvarlik yordami va zilzila oqibatlarini bartaraf etish maqsadida bugun dunyoning 70 ga yaqin mamlakati, 12 xalqaro tashkilotlaridan ko'mak ko'satilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar va zirligidan ham qutqaruwchilar, maxsus avariya-qutqaruw texnikalari qardoshlarimiz uchun yordamga safarbar etildi.

Kechagi kun ma'lumotlariga ko'ra, Turkiyaga yetib borgan o'zbekistonliklar tomonidan vayronalar ostidan 9 kishi (5 nafar erkak va 4 nafar ayol) tirik holda qutqarilgan hamda 12 kishining jasadi olib chiqilgan.

Qardosh turk xalqiga samarqandliklar nomidan hamdardlik bildirildi

6-fevral kuni Turkiyaning janubi-sharqiy qismidagi viloyatlarda yuz bergan kuchli zilzila oqibatida minglab insonlar qurban bo'ldi. Bino va inshootlar jiddiy talafot ko'rdi.

Shu munosabat bilan Turkiyada 12-fevralga qadar motam kunlari e'lon qilindi. Ushbu davlatning Samarcandagi bosh konsulxonasida ham hamdardlik kitobi ochildi.

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov kecha bosh konsulxona bo'rib, bosh konsul Salih Janerga hamdardlik izbor etdi.

Shuningdek, hamdardlik kitobida Turkiya xalqiga Samarcand jamoatchiligi va ahli nomidan ta'ziya izbor etib, dil izhorlarini yozib qoldirdi.

Bosh konsullik zilziladan zarar ko'rgan turk xalqiga moddiy yordam ko'rsatish niyatidagi o'zbekistonlik fuqarolar o'z xayriyalarini "Uzbekistan Ziraatbank" filiallari orqali o'tkazma to'lovlarisiz amalga oshirishlari, bolalar va kattalar uchun turli ashyolar, oziq-ovqat mahsulotlari esa konsulxona (Samarcand shahar Pushkin ko'chasi, 4-uy)ga topshirishlari mumkinligini ma'lum qildi.

Turkiya fuqarolari va yurdoshlarimiz hamdardlik daftariaga 12-fevralga qadar har kuni soat 10:00-12:00 va 14:30-17:00 oraliqda o'z izhorlarini yozishlari mumkin.



Davlatimiz rahbari tomonidan aholini energiya resurslari bilan uzluksiz ta'minlash bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida hokimliklar, huquq-tartibot idoralari va boshqa mutasaddi tashkilotlarga bu borada aniq vazifalar belgilab berilgan edi.

Elektr va gaz tarmoqlariga noqonuniy ulanganlar aniqlandi

Amalga oshirilayotgan ishlarni hamda energiya manbalaridan noqonuniy va samarasiz foydalanshitishlari ommavviy axborot vositalarida keng yoritish maqsadida O'zbekiston Respublikasida qish mavsumida aholini energiya resurslari bilan uzluksiz ta'minlashga doir media-reja tasdiqlangan.

Viloyat hokimligi va prokuraturasi tomonidan elektr energiyasi, tabiiy va suyuylitirilgan gaz, ko'mir va neft mahsulotlari ishlab chiqarish, sotish hamda iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga uzluksiz yetkazib berishda qonun buzilishlarining oldini olish, energiya resurslari noqonuniy iste'mol qilish holatlariga chek qo'yish, ulardan samarali foydalanshitish, mavsumni betalafot o'tkazish maqsadida qo'shma farmovalish tasiqlanish, viloyat, shahar va tumanlarda shtablar faoliyati yo'iga qo'yildi.

Viloyat shtabi tomonidan kuz-qish davrida iste'molchilarini issiqlik, elektr energiyasi, tabiiy va suyuylitirilgan gaz, ko'mir va ichimlik suvi bilan barqaror ta'minlash choralarini ko'rish, bu borada fuqarolarning e'tirozlariga sabab bo'layotgan holatlar ni tezkor aniqlash va bar-taraf etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mutasaddi tashkilotlari, mahalla faollari bilan doimiy aloqa o'rnatilgan holda har bir mahalladagi muammoli vaziyatdan xabar-dor bo'lish, kommunal soha tashkilotlari faoliyati uchun zarur sharoit yaratish tizimi yo'iga qo'yilgan. Shuningdek, tashkilotlarning sifati buzilishi bilan bog'liq holatlar yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda choralar ko'rib bo'rilmoqda.

Viloyatda elektr energiyasi iste'molchilarini soni 892 ming 321 ta (43917 ta ulug'ji, 848 ming 404 ta aholi) mavjud. Ularga kuniga 879 Mvt. elektr energiyasi yetka-zib berilmoqda. "Hududgaz Samarqand" gaz ta'minoti filiali tomonidan 839,2 mingta xonadordan 346,7 mingtasi tabiiy gas bilan, 489,5 mingtasi suyuylitirilgan gaz bilan ta'minlangan.

Favqulodda uzilishlar mutasaddi tashkilotlarning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari orqali e'lon qilib borilmoqda.

Shtab va tegishli ishchi guruhlar tashkil etilgandan so'ng o'tgan yilning dekabr

Bu haqda gapirilmagan gap qolmadı. Hatto ochiqlik, oshkorali davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan bi paytda ham ayrimlarga (rahbarlar ham shular safida) uni bot-bot tushuntirishga to'g'ri kelyapti. Negaki, yillar davomidagi ko'nikmamizni sindirish qiyinroq kechyapti. Ammo tan olish kerakki, ochiqlikni chin ko'ngildan istagan fuqaro ham, rahbar ham ko'p narsaga erishyapti. Ayrilmalar tan olishish istamayapti-yu, lekin jamiyatimiz ro'y bergan jiboyi o'zgarishlarini, aniqrog'i, jamiyatimizning o'sayotgan saviyasini xorijda ham tan olishyapti.

OCHIQLIKKA KO'NIKING, BIRODAR

OCHIQLIKNING FOYASI NIMADA?

Birinchidan, u har qanday kishiga ham, rahbarha ham yotinotin, ishini rejalashtirishni o'rgatadi. O'z niyatini birovlar bilan maslahat qilishga chorlaydi. Natijada xatolardan xoli bo'lib, boshlagan yumushini muvaffaqiyatli yakunlaydi.

Ikkinchidan, har qanday rahbar qanchalik mahoratlari, uddaburon bo'lmisin, obro'ga yolg'iz erisha olmaydi, jamoatchilikka suyanadi. Jamoatchilik esa barcha loyihamalar, rejalashtirishni oshirishda unga yordam beradi. Biroq hech narsadan xabari yo'q jamoatchilik nimani ham nazarot qila oladi?

Uchinchidan, ochiqlik insonning qalbiga egzu niyatlarini, fe'liga esa yaixshi fazilatlarini singdiradi. Ya'ni, boshqalarini ham eshta bilish, foydali maslahatlarini qabul qilish va erishilgan natijaning quvonchini boshqalar bilan baham ko'ra olish. Bu esa, shubhasiz, har bir rahbarga obro' keltiradi.

To'tinchidan, ochiqlik mas'uliyotini oshiradi. Xom-xatala narsalarni ko'pchilikka ma'lum qilmaymiz, shaxsiy manfaatlardan tiyilamiz, muhim, obil borayotgan ishimidan barchanining xabardorligini ta'minlaymiz. Nazarimda, aynan shuning uchun ham o'tramiyona yoki saviyasi past rahbarlar ochiqlikni xush ko'rishmaydi.

Afsusi, ana shu mazmun-mohiyatni barcha birdek tushunish yetmayapti. Ba'zi tashkilotlar bosh-saytlariga nazar tashlasangiz, almisoqdan qolgan ma'lumotlar va eskirib ketgan axborotlardan boshqa narsaga ko'zingiz tushmaydi. Axborot xizmatlarining vazifasi bo'lib o'tgan voqeя haqidagi ma'lumotni saytg'a qo'yish emas, balki odamlarni rejalashtirilgan loyihalardan xabardor

etishdir. Qani, kelgusida bizning hududda nima yangiliklar bo'lar ekan, degan fikr odamlar saytg'a ko'proq kirishadi.

Aslida ochiq bo'lish ko'p mehnat talab qilaydi. Misol uchun, sizga fuqarodan shikoyat keldi. Uni o'rinosbaringizga yuborasisi, u esa bo'lim boshlig'i, bo'lim boshlig'i bu yushmani biorita xodimiga topshiradi. Ana shu tajribasiz yoki noshud xodimning masalani puxta o'rganmasligi, noto'g'ri xulosa chiqarishi keyinchalik fuqaro va yana boshqa o'nlab tashkilotlarning ovoragarchiligi sabab bo'ladi. Siz bu xatoni to'g'rilash o'rniiga o'zingizni oglamoqchi bo'lib boshqa xatolarga ham yo'l qo'yasiz.

Keling, bir tasavvur qilaylik. Agar siz shu shikoyat asosida muallif huzuriga mahalla oqsogoli, shu hudduddan saylangan deputat, journalist va blogerlar bilan birga borsangiz, masalaga tegishli mutaxassislarini hamcha qisangiz hamda muammoli birgalikda o'rgansangiz, masala o'sha yerning o'zida yechimini topishi tabiyyi. Negaki, bu holatda oraga shaxsiy manfaat ham, munosabat ham kira olmaydi.

Ochiqlikka og'ir bo'lsa-da, og'rinib bo'lsa-da, ko'nikyapmiz. Binobarin, davlatimiz rahbari bu siyosatda orqaga mutlaqo yo'l yo'qligini takror va takror aytayti.


Ochiqlikka xalqqa mehr berish, xalq bilan maslahatlashish, xalqning dardini yengillatishga xizmat qiladi. Shu sababli, qalbi ham, faoliyati ham ochiq rahbarlar doimo izzat-kromda. Har bir fuqaro, har bir rahbar ana shunday sharaf sari intilishi lozim.

Farmon TOSHEV.

9-fevral – Alisher Navoiy tug'ilgan kun

Alisher Navoiy

Do'star, bir zot kelmoqda asrlarni oralab, Ezgulikni ulug'lab, razolatni qoralab, Kaftida quyosh tutib, zulmat ko'ksin poralab, Har ko'ngildan ko'ngilga safar qilar Navoiy, Dillarni asir aylab, zafar qilar Navoiy. Ko'z ochgaydir toshlar ham tegsa qutlug' hassasi, Qalblar buloqqa do'nar – asotirli "Xamsa"si, ikki dunyoga bezak ham suvrati, ham sasi: Oshiqlar barhayotdir – zavol bilmas Navoiy, Zamonlar shiddatini ko'zga ilmas Navoiy. Qaqnus, Simurg' tilida – yaxshilarning hayrati, Nafis majlislar tuzmish Layli, Shirin hay'ati, Pisand emas Iskandar, Dorolarning haybati, Yetti sayyorani ham qo'iga oldi Navoiy, Yulduz so'zlarni oydin yo'iga soldi Navoiy. Oltin misralar tiza yuksaltdi ishq zinasin, El-ulusga ochdi u maxfiy Haq xazinasin, Besh asrdan oshdikim, tuganmas ganjinasin – Ayamasdan ularshar saxiy vazir Navoiy, Har ko'ngilda tikladi boqiy qasr Navoiy. Millat uchun abadiy mayoq erur Navoiy, Millat uchun abadiy mayoq erur Navoiy! Nodir JONUZOQ.



Xuruj qilsa, hasrat, oh – ko'nglingga qulqutugay, Goh qo'shilib yig'lar u, goho kulib ovutgay, Ruhingni ko'targaydir, garchi o'z qon yutgay, Har bayti bir tumordir – balogardon Navoiy, Oshiqlarning dardiga davo har dam Navoiy. Ey, birodar, qarodan yuz o'girgil – oqqa kel, Bul g'animat chog'larda dilni qutqarmoqqa kel, O'zlikni anglay desang, bu kun Milliy boqqa kel – Har niholga nigohbon, panoh erur Navoiy, Millat uchun abadiy mayoq erur Navoiy! Nodir JONUZOQ.

Jasur YULDASHEV,
viloyat prokururasi
bo'lim boshlig'i.

 Deputat minbari

HAMMASINI HAL QILISH MUMKIN

Ammo tizimli muammolarga "kuchimiz" yetmayapti

Yangi yil jamiyatimiz uchun sinovli kunlar bilan boshlandi. Saylovchilar telefon orqali yoki bevosita ishxonaga kelib ko'p murojaat qildi.

Albatta, vakolatimiz doirasida aksariyat murojaatchilarga yordam qildi. Lekin ayrim masalalarda qo'limiz kaltalik qilyapti. Fikrimcha, bu kunlardan har birimiz, u davlat tashkiloti bo'fadimi, muayyan shaxsmi, xulosa qilishi, ertangi kuni uchun yangicha fikrlash zarurati tug'ilди.

Misol uchun, aksariyat hal qilomaganimiz, joylarda elektr energiyasi ta'mnidagi uzilishlar bo'ldi. Soha xodimlarini ham tushunamiz: yuklama ortdi, anomal sovuq ta'mirlash ishlariiga salbiy ta'sir qildi. Lekin nega shunga tayyor turmadik? Eng achinarisi, nega shu ishlar issiq-iliq kunlarda amalga oshirilmadi? Nega bu haqda xalqning vakiy sifatida tizim mutasaddilaridan jiddiy turib so'ramadik?

Yagona ilin shuki, bugun deputatlardan, xalq noiblari tom ma'noda o'z burchini tushunib yetdi. O'zimdan misol, aholi ko'ngli, fikru o'yidan nimalar o'tmoqda, degan savollar har kunlik tashvishim bo'lmogda. Menga ishonib ovoz bergan Samarqand shahar 6-Mehrobdan saylov okrugi hududi 24 ta mahalladan iborat bo'lib, 14 ming 923 ta xonadonda 20 ming 328 oila, 55 ming 629 nafar aholi istiqomat qildi. Tabiiyi, ularning o'ziga yarasha muammo va dardarlari bor. Saylovchilar bilan besh marta uchrashib, ularni eshitdim.

Uchrashuvlarda fuqarolar tomonidan 64 ta murojaat tushdi. Ular mazmuniga ko'ra, elektr energiyasi bo'yicha 11 ta, tabibi gaz masalasida 8 ta, ichimlik suvi bo'yicha 4 ta, mahalla hududini obodonlashtirish yuzasidan 3 ta, shifoxonada bepul davolanish bo'yicha 26 ta, maktab va maktabgacha ta'lim tizimi bo'yicha 3 ta, ish bilan ta'mirlash bo'yicha 2 ta, uy-yoy ta'miri yuzasidan 1 ta hamda boshqa masalalar bo'yicha 6 tani tashkil etdi.

Murojaatarning 21 tasi tegishli mutasadilar ishtirokida joyida bartaraf etildi, qolgan 43 ta murojaat bo'yicha korxona, tashkilot va



muassasalarga deputatlik so'rovleri yuborildi. Umumiy hisobda 59 ta murojaatda ko'tarilgan masalalar ijobji hal etildi, 5 ta murojaat ijrosi nazoratga olingan.

O'tgan yili viloyat hokimligi tomonidan har bir deputatga 100 million so'mdan mablag' ajratildi. Ushbu mablag' evaziga saylov okrugimdagи mahallalarda yashovchi kamta'mirlangan, jarroqlik amaliyoti o'tkazilishi ga muhtoj xotin-qizlar ro'yxati shakllantirilib, amally yordam ko'satildi.

Shuningdek, Samarqand shahar Chorbog' mahallasida yashovchi fuqaro G.Rayimovaga sog'lig'i ni tiklash uchun 3 million so'm va Madaniyat mahallasida yashovchi R.Hakimovning uy-joyi ta'miri uchun 10 million so'm mablag' berildi.

Yuqorida aytganimday viloyat tashkilotlari yoki mutasaddilar bilan bog'liq masala yoki muhammoni hal qilish mumkin. Garchi, ayrim hollarda bu muayyan vaqt talab qilsada. Bunda bizdan talab etiladigan faqat qat'iyat va izlanishdan iborat.

Shu bois tizimli muammolar, xususan, elektr energiyasi ta'minot masalasida aniq takliflar ishlab chiqib, tegishli idoralarga kiritamiz.

S.RAFIQOV,
xalq deputatlari viloyat
Kengashi deputati.



12 turdag'i meva qadoqlanib, 9 davlatga eksport qilinadi

Payariq tumanining Bunyodkor mahallasida joylashgan "Chelak tomorqa xizmati" mas'uliysi cheklangan jamiyatni aholi to'morqlarida yetishtirilayotgan 12 turdag'i ho'li mevalarni qadoqlab, Qozog'iston, Xitoy, Rossiya, Belarus, Ukraina, Polsha, Latviya, Litva va Turkiya davlatlariga eksport qilinmoqda. Korxonada 24 nafar doimiy, 60 nafargacha mavsumiy ishchi ishladi.

- 2018-yilda 10 nafar ishchi bilan faoliyat boshlaganmiz, - deydi MChJ rahbari Umar Omonov. - Korxonamiz yiliga 5 million dollarlik qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashga mo'ljalangan. O'tgan yili 4 million dollarlik tayyor mahsulotni eksport qildik. Joriy yil yakunigacha yana 4-5 ming tonna mahsulotni qayta ishlab, 5 million dollarlik mahsulot sotishni va 100 ga yaqin ish o'rni yaratishni rejalashtiriyapmiz.

F.RO'ZIBOYEV.

Prezidentimizning joriy yil 20-yanvardagi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yana-da yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Yashirib nima qildik, ijtimoiy tarmoqlarda hujiyatning mazmuni turilcha talqin qilinmoqda. Aytish lozimki, bunda birinchi navbatda ichki ishlar organlarining xalqchil, shu bilan birga professional tuzilmaga aylantirish choralar bilgilangan.

Xususan, hujiyatga asosan ichki ishlar organi (IIO)da xizmat intizomiga so'zsziz rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan "xodimbay nazorat" tizimi joriy ettiliyapti. Shu bois har bir rahbar xodim uchun shaxsiy tarkib ustidan qat'iy nazorat mexanizmlarini belgilovich "Nazorat harakatlari protokol" tasdiqlanadi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishida xizmat olib boruvchi rahbarlar uchun metodik qo'llanma ishlab chiqiladi.

Albatta, faqat nazorat bilan muayyan natijaga erishib bo'lmasligi tayin. Shu bois IIO xodimlari vatanparvarlik ruhiida tarbiyalash, ular o'tasida kitobxonlikni ommalashitirish orqali ma'naviy dunyoqarashini yuksalitish yo'liga qo'yildi. Ushbu yo'nalishda 2023-2024-yillarda Qoraqalp'iston Respublikasi IIV hamda viloyatlar IBlarida "IIO tarixi muzeysi" tashkil etiladi. Joriy yilda esa tuman (shahar), tarmoq IIO hamda saf bo'linmalarida kutubxonalar tashkil etib, shaxsiy tarkib sonidan kelib chiqqan holda (har bir xodimga kamida 10 ta kitob) axborot-kutubxonalar fondi shakllantiriladi.

Bundan tashqari, xodimlarning ijtimoiy hi-

O'tgan yil yurtimizdagi mahalla fuqarolar yig'inalrida hududda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari lavozimlari joriy etildi. Ularga o'ziga vazifalarga yarasha vakolat, imkoniyat va imtiyozlar berildi. Va albatta, bu vazifalarga ma'lum ish tajribasiga ega mutaxassislar tayinlandi.

O'tgan bir yil yangi tizim uchun ham, bu vazifa ishlaganlar uchun ham sinovli kechdi. Ko'p vazifa yordamchi zimmasida bo'lsa, mahalla oqsoqoli nima ish qiladi, degan gap-so'zlar ham qulooqqa chalindi. Ammo yil davomida mahalladagi har bir xodimning, jumladan, yordamching ham vazifasi ayon bo'lib, uning natijasi hudud aholisi hayotida o'z aksini topa boshladi.

Viloyatimda ham iqtisodiy kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilotlarda asosan, rahbarlik lavozimlarida ishlab kelgan xodimlar orasidan saralangan 1126 nafar xodim mahallalarda hokim yordamchiliga tayinlandi.

Yordamchilar tomonidan birinchi navbatda viloyatdagi xonadonlar xatlovdan o'tkazilib, qaysi oilaga qay tartibda yordam ko'satish, ishsizlar bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, nochor oilalarni kambag'allikdan chiqarish choralari belgilandi. Har bir mahalla bo'yicha "yo'i xarita"lari ishlab chiqildi.

- Birinchi bosqichda, hokim yordamchilari tomonidan mahallalardagi 741,5 ming xonadon xatlovdan o'tkazilib, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga ko'ra to'rt toifaga ajratildi, - deydi Mahallabay ishslash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i Baxriyor Rofeyev. - Ya'ni, birinchi toifaga daromadi kam, ishsiz a'zolari bo'lgan, o'z ishni boshlashga qiziqishi katta, shuningdek, daromad topishga, kasb o'rganishga harakat qilayotgan xonadonlar kiritildi. Doimiy daromadga ega, qo'shimcha daromad topish istagi bor xonadon ikkinchi toifada qayd etildi. Nogironligi va kasal a'zolari bo'lgan, boquvchisini yo'qtogan hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj xonadonlar uchinch'i, iqtisodiy ahvoli yaxshi va o'ziga to'q o'ilalar to'tinchi toifada belgilab olindi. Shu va boshqa omillar asosida aholining kasb-hunarga o'qish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish, kredit olish va boshqa istaklari o'rganildi. Bu masalalarni hal etish uchun hokim yordamchilariga 1,2 trillion so'm miqdorida moliyaviy manbalar shakllantirib berildi.

Shu bilan birga, xatlov davomida 298 mahalla chorvachilik, 264 mahalla dehqonchilik (issiq-xona), 123 mahalla bog'dorchilik, 10 mahalla hunarmandchilik, 34 mahalla kichik ishlab chiqarish, 331 mahalla savdo va xizmat ko'satishiga ixitoslashganligi aniqlandi.

Hokim yordamchilariga yaratib berilgan shaitorit va moliyaviy dastaklar ulg'ar qaytishga qarab, aholi bilan ijobji munosabati o'rnatish imkonini berib, aholini ijtimoiy himoya qilish, ularning bandligini ta'minlash va tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlari natijadorigini oshirdi.

Natijada yil davomida 118,1 ming nafar aholi doimiy va mavsumiy ishga joylashtirildi, 172,8 ming nafari o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tdi, 13,1 ming kishi yakka tartibdagi tadbirkorlikka va 12,9 ming nafari haq to'lanadigan jamoat ishlariiga jaib qilindi, 36,9 ming nafar fuqaroga jara asosida yer ajratildi.

HOKIM yordamchilari

o'z ishini davom ettiradi



Oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida hokim yordamchilari tavsiyonamalari asosida 40,2 mingta loyiha uchun 902 milliard so'mlik kreditlar ajratildi.

Aholini tadbirkorlikka jaib qilish, ulgara mehnat qorullari va asbob-uskunalar olib berish maqsadida 7,3 ming naifar ishsiz fuqaroga 19,5 ming naifar qilish subsidiya berildi.

27 ming naifar fuqaro kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qishga yo'naltirildi. Ularning qariyb 26 ming naafari "Ishga marhamat" monomarkazlari va boshqa nodavlat ta'lil muassasalarida o'qidi.

Yordamchilar tomonidan 3,5 mingta "mahallabay" mikroloyihalar shakllantirildi va ularning barchasi ishga tushirilib, 16,6 mingta yaqin ish o'rni yaratildi. Mahallalarda 10,6 mingta yuridik va 12,9 mingta yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'yeqtida qayd etildi. Xatlov davomida aniqlangan, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmasdalar faoliyat yuritib kelayotgan 1,8 mingdan ortiq tadbirkorlik sub'yekti aniqlanib, soliq organlari bilan birgalikda ularning faoliyatini kiritiladi. Har bir oila bilan "individual dastur" va "ijtimoiy shartnoma" asosida ish tashkil etiladi.

Bundan tashqari, aholi turmush sharoiti ni yaxshilash maqsadida hokim yordamchilari tashabbusi bilan mahallalarda zamon talablariga mos infratzilma yaratishga ham e'tibor qaratildi.

Bu kabi ishlarning samarasi, aholi daromadining o'zgarishini aniqlash maqsadida o'tkazilgan kuzatuvlar shuni ko'satidiki, yordam ko'satigan oilalarning deyarli barchasi hayotida o'zgarish bo'lgan, jon boshiga daromad miqdori oshgan.

25-yanvar kuni Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash hamda kichik biznesni rivojlantirishga qo'shimcha sharoitlar yaratish chora-tadbirlari yuzasidan videoelektor yig'ilishi shakllantirishga qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha 2023-yil uchun rejalar muhokama qilindi.

- Bu yil oldimizga juda katta vazifalar qo'ygamiz, - deya so'zida davom etadi B.Rofeyev. - Videoselektorda ham davlatimiz rahbari

tomonidan har bir masala atroficha muhokama qilinib, vazifalar aniq belgilab berildi. Joriy yil viloyatimda 190 ming fuqaroni o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatga olish, 13 ming nafrini hunarmandchilikka jaib qilish choralari ko'rildi. 19 ming kishi kasb-hunarga, 16 ming kishi tadbirkorlikka o'qitaldi.

Aholini tadbirkorlikka yo'naltirish va o'zini o'zi band qilishi uchun oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida 40 mingga yaqin loyiha 10 trillion so'mlik imtiyozli kreditlar hamda 10 mingga yaqin ishsiz fuqaroga 41 milliard so'mlik sub-sidiyalar ajratildi. Bunda, joriy yildan tuman va shaharlarning besh toifaga bo'lingan e'tiborga olinadi. To'rinch toifadagi (jozibadorligi yetarli bo'Imagan) Kattaqo'rg'on, Nurobod, Paxtachi, Payariq tumanlari hamda beshinchi toifadagi (sharoiti oq'ir) Qo'shrabot tumaniga alohida e'tibor qaratiladi.

Investitsiya dasturiga kiritilmagan va hokim yordamchilari tomonidan shakllantirilgan 4 mingga yaqin "mahallabay" mikroloyihalar amalga oshirilish, 19 mingdan ortiq yangi ish o'rnlari yaratiladi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida 2023-yilda mahallalarda 11,9 mingta yuridik va 20,7 mingta yuridka tartibdagi tadbirkorlik sub'yeqtari davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

Birinchi chorak davomida mahallalarda qaytadan "xononbay" xatlov ishlari olib boriladi va o'rganish natijalari "Onlayn mahalla" platformasida qayd etiladi. "Ijtimoiy himoya yagona reestri"dagi har bir oilaning iqtisodiy ahvoli o'rganilib, o'rganish natijalariga ko'ra daromad kambag'allik chegarasidan past deb topilgan oilar "kambag'allikdan chiqarish" moduliga kiritiladi. Har bir oila bilan "individual dastur" va "ijtimoiy shartnoma" asosida ish tashkil etiladi.

Ijtimoiy shartnoma mahallalarga yaqin hududlar da 44 ta mikromarkazlar tashkil etiladi. Buning uchun hokim yordamchilari tomonidan birinchi chorak davomida mahallalarda bo'sh turgan bino va yer maydonlari aniqlanib, aksjon savdolari qondirish hamda bu yo'nalishda aholi olayotgan daromadlar hisobini kuzatib borish maqsadida hokim yordamchilariga yil davomida yer maydonlarida foydalish yuzasidan monitoring yuritiladi.

Ijtimoiy shartnoma mahallalarga yaqin hududlar da 44 ta mikromarkazlar tashkil etiladi. Buning uchun hokim yordamchilari tomonidan birinchi chorak davomida mahallalarda bo'sh turgan bino va yer maydonlari aniqlanib, aksjon savdolari qondirish hamda bo'lgan tadbirkorlarga loyihalarni amalga oshirishga ko'maklashildi.

Umuman, bir yillik tajriba asosida bu yil hokim yordamchilari tomonidan mahallalarda olib borilayotgan ishlari ko'lamli kengayadi va bu albatta, samaradorlik oshishiga yordam beradi. Muhimi, hududlarda aholi turmush tarzida ijobji o'zgarishlar bo'ldi.

G.HASANOV

ZAMONAVIY PROFESSIONAL KADR

Tizimdagi har bir xodim shunday bo'lishi uchun zarur choralar belgilandi

moya masalalaridagi murojaatlarini qabul qilish hamda ularni adolatli va xolisiga ko'rib chiqish tizimi takomillashtiriladi. Endi xodimlarning ijtimoiy himoya masalalaridagi murojaatlarini qabul qilish tizimi to'liq raqamlashtiriladi. Ya'ni, shaxs uchrashish, yuzma-yuz ko'rishishga zururat qolmaydi.

Muhimi, xodimlarga ajratiladigan ijtimoiy yordam masalalariga doir murojaatlarini komisyon tartibda ko'rib chiqiladi. Demakki,

Yonimizdagi odamlar

Biz huquq himoyachilari deganda, odatda, sud, prokuratura tizimi xodimlarini tasavvur qilamiz. Aslida advokatlar ham aynan huquq himoyachilari sanaladi. To'g'ri, ularning asosiy vazifasi o'z himoyasidagi bo'lgan insonni oqlash, uning huquqlarini himoya qilishdan iborat. Ammo u kimmadir himoya qilishga otlanar ekan, avvalo o'zi uning aybdor emasligiga ishonch hosil qilishi kerak. Bu esa mutaxassisidan yaxshi bilim, tajriba, ziyraklik va zukkolik talab etadi.

Adolat tug'iga suyanib...



Ozoda Muxtorova haqida gap ketar ekan, unda advokatga xos bo'lgan barcha xususiyatlarni mavjudligi e'tirof etiladi. Opa har bir so'zini yetti emas, yetmish bor o'yab, keyin bildiradi. Ko'p yillik tajribasi tufayli o'z huquqi sud orqali tiklanishini so'rab kelgan minglab murojaatchilar bilan ishlab, odamlarning ko'zlaridan ularning aybdor yo'aybsizligini bilib oladi. Shuning uchun bo'sha kerak, opani izlab keluvchilar ko'p.

Ozoda Muxtorova 1963-yilda Samarcand shahrida tug'ilgan. 1985-yilda Samarcand davlat universitetining huquqshunoslik fakultetini tugatib, viloyat advokatlar hay'ati a'zoligiga qabul qilindi. Shundan so'ng Samarcand turman yuridik maslahatxonasida advokatlik faoliyatini boshladi. 1990-yilda Samarcand shahar, sobiq Bog'ishamol tumani xalq sudining sudyasi, 1992-yilda esa Samarcand shahar sudining sudyasi lavozimida ishlangan. 1997-yildan O'zbekiston respublikasi advokatlar palasati viloyat hududiy boshqarmasida advokatlik faoliyati bilan shug'ullanigan bo'lsa, 2017-yilden hoziriga qadar Samarcand shahar "Xusenov K.M." advokatlik hay'atida advokat vazifasida ishlab kelmoqda.

Ozoda Muxtorova ish faoliyatini davomida o'z vazifasini mas'uliyatni his qilgan holda, vijdoran, oqilona bajarishi bilan hamkasblari e'tiboriga tushdi.

Vazifasiga sindqidandan yondash-gani sababli unga ishchon bildirib keluvchi, haqiqat izlab murojaat etuvchilar soni ko'p.

Opaning ojladagi sarishtalik, mehr kabi fazilatlarini ham ko'plab

onalarga o'rnat qilib ko'rsatish mumkin. Uch nafer farzandi bugun jamiyatning turli sohalarida mehnat qilmoqda.

"Jamiyatning kichik bo'g'ini bo'lmish oilada ham adolat bo'imas ekan, uning mustahkamligiga kafolat bo'lmaydi, jamiyat ham xuddi shunday. Shuning uchun tarozi pallasi doim teng bo'lishi lozim. Ozmi-ko'pmi shu sohada mehnat qilib, elning koriga yaragan ekanman, bu avvalo adolat atalmish tug'ga suyanganidan bo'lsa kerak. Buz oilada shunday o'sganmiz. Otam rahmatli, nafaqat Samarcand, balki respublikada mashhur jurnalist Ahmadjon Muxtorov bizni ham adolat ruhiya tarbiyalashga intilgan. Baholi qudrat u kishinang ko'rsatmalari asosida yashashga intildik", deydi Ozoda Muxtorova.

Opani qutlug' yoshi bilan qutlar ekanmiz, mustahkam sog'iлик, uzoq va saodatli umr, yana uzoq yillar el xizmatidan tolmasliklarini tilaymiz.

Qobil HUSENOV,
"Xusenov K.M." advokatlik
hay'ati boshqaruvchisi.

Kutilmagan vaziyatlardan ogoh bo'ling!

Tabiat hodisalarini oldindan boshqarib bo'lmaydi. Shu sababli kutilmaganadaga yoqqan kuchli yomg'ir va qattiq shamol-lar aholi xonardonlari va mol-mulki, avtomobil va temir yo'llar, elektr, tabiiy gaz va aloqa tarmoqlari faoliyatiga hamda transport vositalarining harakatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yurtimizda kuz-qish mavsumida favqulodda vaziyatlar ko'p sodir bo'ldi. Aholi xavfsizligini ta'mirlash maqsadida mahallalarda tezkor profilaktik tadbirlarni kuchaytirish, sel oqibatlarini bartaraf etish maqsadida barcha shahar va tuman hokimliklari, favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, idora va tashkilotlarning o'zaro hamkorligini ta'mirlash maqsadida tezkor shtablar tuziladi. Ularga tegishli xizmat idoralari biriktilib, navbatchilik tashkil etiladi.

Jumladan, viloyat hokimligida ham tezkor shtab tashkil etigan bo'lib, 34 ta traktor, 25 ta tez yordam mashinasi, 25 ta buldozer, 35 ta yuk mashinasi, jami, 537 ta texnika ro'yxati shakkantirildi.

Viloyatning sel va ko'chki xavfi mavjud bo'lgan 17 hududida, jumladan, Urgut tumanida 8 ta, Samarcand tumanida 2 ta, Nurobodda 4 ta va Qo'shrabotda 3 ta nazorat-kuzatuv postlari tashkil etilib, aloqa vositalari bilan ta'minlandi.

Keyingi yillarda viloyat hududida yana 6 ta (Urgut tumanida 4 ta, Samarcand shahridagi Iстиқбол va Shahrobod mahallalarida) sel va ko'chki xavfi mavjud bo'lgan uchastkalar aniqlandi. O'tgan yili Urgut tumanidagi 4 ta sel kelish xavfi bo'lgan hududlarda yashovchi aholi boshqa joyga ko'chirilib, soy qirg'oqlarini mustahkamish ishlari olib borildi.

O'tgan yili daryo, soy va kanallar o'zanlarini



tozalash, qirg'oq va dampbalarni mustahkamlash maqsadida maxsus-taktik o'quv mashqlari o'tkazildi. Bu ishlarga shaxsiy tarkib va texnika vositalari jalg qilindi.

Shuningdek, yetti tumanda 17 milliard so'm mablag' sarflanib, 18 ta ob'yectda qirg'oq mustahkamlash, damba qurish, inshootlarni ta'mirlash va boshqa muhandis-teknik tadbirlar amalga oshirildi.

Bu orqali 8546 dan ortiq aholi xo'jaliklari, 9032 gettar ekin maydoni va fermer xo'jaligi yerlari hamda 166 ta ijtimoiy soha ob'yehti muhofazasi mustahkamlandi.

Sel, suv toshqinini va ko'chki xavfi mavjud hududlarda yashovchi aholini tabibiy ofatlar yuzaga kelganda harakat qilishga o'rgatish bo'yicha mahallalarda, korxonalar va tashkilotlarda, o'quv yurtlarida profilaktik tadbirlar o'tkazilib, eslatma materiallar tarqatildi.

Urgut tumani hududidan o'tuvchi Samarcand-Kitob avtomobil yo'lida, Taxtaqoracha donovona joylashgan kuzatuv-nazorat postlari doimiy nazorat o'nataligan.

Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda turarjoylar, korxonalar binolarining tom qismalarini zdulik bilan mus-

tahkamlash choralarini amalga oshirish lozim. Elektr va aloqa tarmoqlari atrofidagi daraxtlarni butalash ishlarni bajaring. Daraxtlar va katta reklama monitorlari oldida avtotransport vositalari harakatini va turishini vaqtinchada cheklang. Arik, quruv va irrigatsiya tarmoqlarini turli chiqindillardan tozalang. Xavf yuqori bo'lgan hududlarga sayohat qilmang. Sel to'g'risida xabar eshitgan zahoti darhol xavfsiz joyga ko'chish harakatini boshlashni maslahat beramiz. Shuningdek, sel va suv toshqinlari kuzatilishi mumkin bo'lgan tog' va tog' oldi hududlarda istiqomat qilayotgan aholiga yog'inganchilik mavsumi davomida chorva mollarini xavfli hududlarga olib bormaslik tavsija etiladi.

Zarur hollarda viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasining (66) 234-71-00; (66) 234-06-01; (66) 234-06-02 raqamlari hamda qisqa 101 va 1050 raqamlariga murojaat qilishingiz mumkin.

**Ilhom ISROILOV,
viloyat favqulodda vaziyatlar
boshqarmasi boshlig'i.**

Jamoat transportida chekish taqiqlangan

Ammo bu qoidaga haydovchingining o'zi nega amal qilmaydi?

Biror yumush bilan ko'cha-ga chiqqanimizda, albatta, jamoat transportidan foyda-lanamiz. Ammo ular ko'rsa-tayotgan xizmatdan aholi mammunmi?

Misol uchun, Samarcand shahrida harakatlanuvchi ba'zi avtobus haydovchilarining qilg'i ensangizni qotirdi. Avtobusda "chekish mumkin emas" yozuvli lib qo'yilgan bo'lsa-da, haydovchingin o'zi bema'lol sigaret chekib ketaveradi.

Bu holatda haydovchi nafaqat o'ziga, balki yo'lovchilarning ham salomatligiga zarar keltirmoqda. Xavfsizlik qoidalariga keladigan bo'lsak, hozir

avtobuslarning aksariyatida gaz balonlar o'rnatalgan. Shunday bo'lgach, avtobusda sigaret chekish qanchalik to'g'ri?

Albatta, bu kabi salbiy holatlarning oldini olishda jamoatchilikning o'ni juda muhim. Ammo yo'lovchilar orasida haydovchidan yoshi ulug' otaxonu onaxonlar bo'lsa-da, lom-mim demaydi.

Bu kabi holatlar nafaqat avtobusda, balki oshxonaga, kafe-restoranlarda ham uchramoqda. Xo'randa shundoqqina ko'z oldiga "chekish mumkin emas", degan yozuv bir necha tilda yozib qo'yilgan joyda intizomga amal qilmay chekaveradi. Oshxona egasi esa jim...

Husan ELTOYEV.

Ko'rgan, eshitganlarim



DEHQON XO'JALIGI TASHKIL ETISH ISTAGIDAGI FUQAROLAR DIQQATIGA!

Aholining daromad topishga qaratilgan tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularga agrar tarmoqda o'z biznesini tashkil etishga ko'maklashish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon xo'jaliklarining ulushini oshirish va qishloq xo'jaligini diversifikasiyalash orqali oziq-oqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-noyabrda "Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda olibayli tadbirkorlik rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo'jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-20-soni qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga asosan Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-noyabrdagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tashdiqlash to'g'risida"gi 709-soni qarori qabul qilindi.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbarining 2022-yil 10-sentabrdagi PQ-373-soni qarorga asosan viloyatimizda fermer xo'jaliklari va klasterlar foymalanishidagi paxta va g'alladan qisqartirilgan hamda aholi punktlariga yaqin, suv ta'minoti yaxshi bo'lgan yerlar hisobidan fuqarolarga ochiq elektron tanlov orqali jura huquqi etiladigan ochiq elektron tanlovda 1 nafar talabgor ishtirok etган taqdirda istisno tariqasida tanlov o'tkazilgan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-sentabrdagi PQ-373-soni qarorga asosan 2022-2023-yillarda dehqon xo'jaligi yuritish maqsadida ekin maydonlarini aholiga berish uchun tashkil etiladigan ochiq elektron tanlovda 1 nafar talabgor ishtirok etган taqdirda istisno tariqasida tanlov o'tkazilgan hisoblanadi.

Manzil: Samarcand shahri Kamol Otaturk ko'chasi, 21-uy. Murojaat uchun telefon: +99899-207-36-07.

HURMATLI FUQAROLAR! Yer olib beraman degan firibgarlarga ishonib, aldanib qolmang!

E-auksion.uz onlayn savdo platformasi orqali tanlovlariga chiqarilgan.

Mazkur dehqon xo'jaligi tanlovlarida ishtirok etish istagidagi talabgorlar **"E-auksion.uz"** onlayn savdo platformasi orqali ro'yxatdan o'tgan holda o'zi istagan lotga onlaysiz ariza topshirish imkoniyati mavjud.

E-auksion.uz onlayn savdo platformasi orqali qanday ro'yxatdan o'tildi, shaxsiy hisob qanday to'ldiriladi va lotga qanday ariza beriladi kabi savollarga javobni **"E-auksion.uz"** onlayn savdo platformasining "Yordam" bo'limidan yoki ijtimoiy tarmoqlardagi quyidagi sahfalar orqali olishingiz mumkin:

Telegram: <https://t.me/auksionvideo>
Web: <https://e-auksion.uz>
Facebook: fb.com/auksion.uz
Twitter: twitter.com/auksionuz
Instagram: instagram.com/auksionuz
Youtube: <https://bit.ly/2IOAUrt>

Talabgor ariza topshirishda bazaviy hisoblash miqdorining bir barobari miqdoridagi zakalat pulini operatorning maxsus depozit hisobvarag'iga kiritadi. "Temir daftari", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari"ga va 2022-yil 1-mart sanasidan keyin xorijidan qaytib kelgan mehnat migrantlari ro'yxatiga kiritilgan talabgorlar ushbu to'lovdan ozod etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-sentabrdagi PQ-373-soni qarorga asosan viloyatimizda fermer xo'jaliklari va klasterlar foymalanishidagi paxta va g'alladan qisqartirilgan hamda aholi punktlariga yaqin, suv ta'minoti yaxshi bo'lgan yerlar hisobidan fuqarolarga ochiq elektron tanlov orqali jura huquqi etiladigan ochiq elektron tanlovda 1 nafar talabgor ishtirok etган taqdirda istisno tariqasida tanlov o'tkazilgan hisoblanadi.

Manzil: Samarcand shahri Kamol Otaturk ko'chasi, 21-uy. Murojaat uchun telefon: +99899-207-36-07.

HURMATLI FUQAROLAR! Yer olib beraman degan firibgarlarga ishonib, aldanib qolmang!

"Yoshlar daftari"ga kiritilgan shaxslarga dehqon xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkalarini o'qilishni ijaraga berilganda, ular yuqoridaqida daftarlardan chiqarilmaydi va ular uchun qonunchilikda belgilangan barcha imtioyoz va preferensiyalar bir yil muddatiga saqlab qolindan.

Imtioyoz va preferensiyalar bilan shaxslarga dehqon xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkalarini o'qilishni ijaraga huquqini yutib olish uchun to'lanadigan to'lov bo'lib, mazkur summa tanlov o'tkazilgan sanadagi normativ qiymat bo'yicha hisoblanadi hamda 30 yilga teng taqsimlanib to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyuladagi PQ-5197-soni qarorga asosan **"E-auksion.uz"** onlayn savdo platformasida savdog'a chiqarilayotgan mulklarni keng targ'ibotni amaliga oshirish va aholining aksionsida qatnashishi uchun quylayiklar yaratish maqsadida "Elektron onlays-auksionlarni tashkil etish markazi" DUK Samarcand viloyati huddidi boshqarmasi vakillari faoliyat olib borishmoqda.

Manzil: Samarcand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Manzil: Samarcand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Manzil: Samarcand shahri Bog'dod ko'chasi, 1-uy, 3-xona.

MINNATDORMAN!

Yoshing ulg'aygan sayin kasalliklar tez-tez bezovta qilib turarkan. Sog'ligimda bo'lgan muammo sabab Samarcand shahar 7-oilaviy poliklinikasiga murojaat etdim. Ular meni yo'llanma asosida Respublikasi ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Samarcand filialiga yuborishdi. Bu yerda o'zining shirin so'zi, muolajalar bilan dardimga bo'lib oshishdi. Yurtimizda sog'liqi saqlash sohasiga berilayotgan e'tibor samarasini ushbu muassasalarda ko'rdim.

↓ 9-fevral - Alisher Navoiy tug'ilgan kun

Bolaligim Qo'shrabot tumanining tog'lari bag'rida joylashgan qishloqda o'tgan. Ko'pincha tengdoshlarim bilan mushoira o'ynardik. She'r qaysi tovush bilan tugasa, shu tovush bilan boshlanadigan bilan davom ettiresh kerak edi. Kim topolmay qolsa, o'sha o'yindan chiqib ketardi. Maqtanishga yo'y mang, men do'stlarim orasida eng ko'p she'r biladigan bolalardan biri edim. Shuning uchun, ko'pincha men g'olib bo'lardim. Gap g'oliblikda emas. Asosiyasi, mushoira bizni ko'proq she'r yodlashga undirdi. Yana bir ahamiyatlari jihatiga, bahor payti tog' etadigagi bog'da she'r xonlik qilishning gashti boshqacha edi. Ovozimizni baralla qo'yib o'qiganimizda toshlardan qaytadigan aks-sado bizni ilhomlantirardi.

Navoiy rolini ijro etadigan qahramon topildi



Ulg'ayib, o'zim tug'ilib o'sgan mahallada joylashgan mabkabda ustozlik qilish baxtiga muysassar bo'ldim. Mutaxassisligim boshqa yo'nalişsha bo'lsa-da, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilar yordamida yosh ijodkorlar to'garagini tashkil qilib, iqtidori o'quvchilarni bir joyga jamladim.

Maktabimiz direktori fevral oyining 9-sasnasi ta'lim muassasamizda "Navoiyxonlik kechasi"ni har yilgidan farqli ravishda tashkil etish topshirig'ini berdi. "Navoiyning bolaligi" nomli ssenariyoyzdim. To'garak a'zolari orasida Navoiy obrazini qoyilmagom qilib ijro etadigan bola topolmash. Ular yugor sinif o'qituvchilar bo'lgani uchun yoshi ham biroz to'g'ri kelmaydi. Shuni o'ylab ishdan qaytayotib, mendan sal narida 4-5 nafr bosh-

lang'ich sinif o'quvchilarining she'r aytishib ketayotganiga guvoh bo'ldim. Yo'llim boshqa tomonga bo'lsa-da, qo'limdag'i telefonda bir nimalarni yozib ketayotgandek, ularning ortidan sekin odimlab boraverdim. Birining o'qigan she'r "O" tovushi bilan tugadi. 3 nafr davom ettirolmay o'yindan chiqdi. Ularning orasida jussasi eng kichigi chiroyli ohangda hazzat Navoiydan o'qidi:

Orazin yopqach, ko'zumdin sochilur
har lahza yosh,
O'ylikim paydo bo'lur yulduz,
nihon bo'lg'ach quyosh...

- Barakalla, - beixtiyor ovozim boricha shu so'zni aytib yubordim.

Bolalarning o'yini shu yerda to'xtab qoldi. Bunga men sababchi edim.

- Barakalla, qoyil, otalaringga rahmat, - dedim Navoiy rolini ijro etishga qahramon topganidan sevinchini ichimga sig'may. - Sizni anchadan beri kuzatib kelyapman. Har biringiz yaxshi she'rлarni yod oigan ekansiz. Yaqinda maktabimizda o'tkaziladigan tadbirda sahna ko'rinishida qatnashasiz, xo'pmi?

Bolalar sursand bo'lishdi. Ular bilan tayyorgarlik jarayonlari vaqtini kelishib oldik.

O'ylanlik qoldim, ba'zida biz boshlang'ich sinif o'qituvchilariga ko'p e'tibor bermaymiz, ularni to'garaklarga jaib qilishga urinmaymiz. Shu voqeadan keyin yosh ijodkorlar to'garagi qoshida jazzi bolajonlar uchun ham alohida guruh tashkil etishni maqsad qildim.

Lobar BOLTAYEVA.

Donishmandlar bola tarbiyasini tug'ilmasidan oldin boshlash kerak deyishadi. Darhaqiqat, ota-bobolarimiz ayolining homiladorligidan oq halol luqma yeyishi ga e'tibor qaratganlar. Sababi, harom luqma yeb ulg'aygan farzand bemehr, beqibat bo'ladi. Aksincha, halol luqma yeb katta bo'lgan farzandlar nafaqat ota-onasiga mehrli, oqibatli, balki jamiyat uchun foydali, komil insonlar bo'lib yetishadi. Buni bilgan donolar oziga qanoat qilsa-da, farzandini halol taom bilan katta qilgan. Shuning uchun ham O'rta Osiyodan yetishib chiqqan olimlar qoldirgan boy meros hamon dunyo ahli ni hayratga solmoqda.

Bala tarbiyasi

OTA-ONAGA BOG'LIQ

Ammo halollikka hamma ham e'tibor qaratmaydi. Ba'zilar bolam bekami-ko'st bo'lsin, deya topganini oilasiga olib kelaveradi. Ayrim rahbarlarning farzandi noqobil bo'lib ulg'ayishi, ota-onasini kuydirishi ham balki shundandir.

Ba'zi ota-onalar ishga boshi bilan sho'ng'ib keta diyu, bola tarbiyasiga vaqt ajratmaydi. Bolasi maktabda qanday o'qiyotgani, kimlar bilan do'stligi, hatto kechqurun nega ko'chaga chiqib ketayotganiga parvo ham qilmaydi. Parvarish qilinmagan nihol egri o'sgani kabi, nazorat qilinmagan bola ham tarbiyasiz bo'lib ulg'ayadi.

Xalqimizda olma tagiga olma tushadi, degan gap bor. Ota-ona qancha tarbiyalari bo'lsa, farzandiga ham go'zal tarbiya bera oladi. Agar farzandiging noqobil bo'lsa, bu siz bergan tarbiyaning mahsulidir.

Turdi TURSUNOV,
mehnat faxriysi.

Dizel senga, chizil unga

Oliyoh o'qituvchiligidan bo'shatilgan filolog olim, dotsent Nafasov kimningdir qo'ng'irog'i bilan kolxzimizga rais bo'lib keldi.

U o'ziga birkirilgan mashinada tinmay xo'jalik dalalarini kezardi. Mana, hozir ham Ravot guzarining Alang dashtida Abdurazzoq tog'a brigadasida ekin-tikin ishlardan xabar olib yuribdi.

Tamaki ekish uchun shudgorlashga kelgan traktor kechadan buyon ishlamayapti. Aliqlu traktorchi bilan tog'aning o'g'i Xomid qo'lli qora moyga botib tuzatishga urinadi. Xomid ikki yildan beri o'qishga topshirib imtihondan yiqiladi. Tog'a uni bekor yurmasin, deb shu yerga olib keladi.

Ko'p o'tmay shiyon oldida raisning mashinasi ko'rindi. "Ishim baroridan keldi", o'yaldi Aliqlu. Borib raisga vaziyatni tushuntirdi. Rais boshini sarak-sarak qilib, shiyon yonidagi hovuz bo'yiga qarab yurdi. Aliqlu og'i qulog'ida yordamchisi Xomidni o'ziga imladи:

- Tez yugur, - dedi u shogirdini shoshirib. - Raising moshinasi borib kelarkan. Birdaniga uchta ola kel rasr ray qilganida, insho (traktoring ehtiyoj qismi) hamma vaqt kerak.

Abdurazzoq tog'a raisni tollar tagidiga chorpoyaga boshladi.

- Changqidam, achchiq choy dam-lating, - dedi rais peshona terin artilib, so'ng chorpojadagi ko'rpa chaga



yonboshladi.

Tog'a dala qorovuliga qumg'onga choy qo'yib, biror yemoq pishirishni tayinladi. Ko'p o'tmay choy qo'lib keldi. Ammo rais uxlab qolgan edi. "Sovib tursa, yaxna choy, rohat qilib simirdi", deb choyonakni shu yerda qoldirdi.

Shu damda injener Shukrullo aka ikki brigadini motosikliga min-gashtirib, shiyon tonom kelayot-gandi.

- Bo'ri ni qilish yuribdi? - dedi - Bular nima qilib yuribdi? - dedi rais brigadir va injenerga qarab. - Bo'lar-bo'imas ishlarga ham orqamdan yuraverarkansida-a?!

Raisning e'tiboridan dillangangan injener va ikki brigadir chorpoya yoniga keldi. So'ng hovuzning narigi tomonidagi supadagilarga ko'zi tushdi.

- Insho dedinglar uyimdan olib kelib berdim. Shukrullo aka, siz ham texnika bo'yicha rahbarsiz. Shu muammoni yecholmay yugurib kelguncha Halim akaga dizeln, Namoz akaga chizilni bering, bo'ldi, vassalom!

Rais shunday topshiriq berdi-da, uyguni davom ettirish niyatida yonboshladi.

Shukrullo aka boshliq brigadirlar hangu mang qolaverdi.

Bo'lgan voqeа

mogchi ekan, o'qishga kirmoqchi bo'lsang olib ketaver, deb o'nta insho daftarni qo'limga tutqazdi. Nasib qilisa, kelasi yil bu tekshirilgan insholar bilan albatta o'qishga kiraman.

Xomidni kutib turganlar gap nima-dalgini tushundi. Alang dashtini qattiq kulgi ovozi tutdi. Biroz o'tib, kulaverib ko'zlar yoshlangan Aliqlu traktori. Xomidning yelkasiga turdi:

- Bor, anavi shudgorlangan yerdan inshoni topib kel!

Abdurazzoq tog'a brigadirlari rais uxlayotgan chorpoya tomon boshladi. U haliyam dong qotib uxlayotgan edi.

- Rais bova, how rais bova, - tog'a uni sekinti turib uyg'otdi. - Biroz tamaddi qilib olmasizmi, ovqat pishibdi?

Rais o'rnidan turib, ko'zlarini ishqaladi. So'ng hovuzning narigi tomonidagi supadagilarga ko'zi tushdi.

- Bular nima qilib yuribdi? - dedi rais brigadir va injenerga qarab. -

Bo'lar-bo'imas ishlarga ham orqamdan yuraverarkansida-a?!

Raisning e'tiboridan dillangangan injener va ikki brigadir chorpoya yoniga keldi. So'ng Shukrullo injener Halim akaga shudgorlash uchun dizel, Nomoz akaga chizil kerakligini aytdi.

Yana arzimagan narsa uchun bezovta qilgan xodimlarining bu ishidan rais g'azablanish tutoqib ketdi:

- Insho dedinglar uyimdan olib kelib berdim. Shukrullo aka, siz ham texnika bo'yicha rahbarsiz. Shu muammoni yecholmay yugurib kelguncha Halim akaga dizeln, Namoz akaga chizilni bering, bo'ldi, vassalom!

Rais shunday topshiriq berdi-da, uyguni davom ettirish niyatida yonboshladi.

Shukrullo aka boshliq brigadirlar hangu mang qolaverdi.

Suyunboy HUSANOV,
Urgut tumani.

MUASSIS: Samarcand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarcand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 704 nusxada chop etildi. Buyurtma 74. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshnabi, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarcand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarcand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqt:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00.

Navbatchi muharrir:

A.SHERZOLOV.

Navbatchi:

G.MO'MINOVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.

ISSN-201667X



Sotuvda
narxi kelishilgan holda


↓ Moskvadan maktub



"Yerga ko'milgan nur"

Yoxud Saidrizo Alizoda hayotiga bir nazar

Hurmatli tahririyat, men bobom Saidrizo Alizoda tavalludining 135 yilligini ona shahrim - Samarcandda munosib nishonlab, olam-olam taassurot bilan Moskvaga, farzandlarim huzuriga keldim. Takror bo'lsa ham ma'rifat-parvar bobom yubileyini munosib o'tkazishga hissa qo'shgan O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev, Samarcand viloyati hokimi E.Turdimov, Samarcand shahar hokimi F.Umarov, ularning barcha fidoyi xodimlariga, jamaat tashkilotlariga sulolamiz nomidan minnatdorlik bildiraman.



ko'milgan nur" biz uchun armonga aylandi. Samarcanda kelgach, bir muddat o'tgan dan so'ng bobomning akasi Mirhasan 1927-yilda oиласи bilan Eronga ko'chib ketgan. Bobom esa "Men Turkiston farzandiman, Samarcand farzandiman, chunki shu yerda dunyoga keldim, bu tuproq men uchun azizid", deb shu yerda qolgan.

Hozircha bilganlarim shular. Nasib etsa, keyingi gal borganimda katta bobomning daftarchasidagi bitklarni o'rganamiz. Va, Saidrizo Alizodaning hayotiga oid yangi ma'lumotlarni olamiz, degan umiddaman.

Farhod ALIZODA.

2023-yil 2-fevral. Moskva.



Ibratli rivoyat

TILLA RANG KO'YUAK

Rivoyat qilinishicha, shoh Sulaymon xalqparvar, yurtini va xalqini sevadigan inson sifatida nom qozongan bo'lib, jonzotlar bilan tillashisha u kishiga teng keladigan inson yo'q ekan.

Kunlarning birida xotini tilla rangli qushlarning patidan ko'ylak tiktrit kiyish orzu siyosatiga aytibdi. Shoh Sulaymon ham bunga rozi bo'lib, dunyodagi barcha tilla rangli qushlarning huzuriga chorlab majlis o'tkazibdi. Yig'ilishga Boyo'g'li kechikib kelibdi.

- Nega majlisiga kechikib kelding, Boyo'g'li? - deb so'rabdi shoh.

- Uzr shohim, shaharlar, qishloqlarda bo'lib, o'zimga tegishli bo'lgan choldevorlarning hisobini olib chiqdim. Tillar rangli patim yo'qligi sabab, sizga ming dona choldevorimni sovg'a qilmoqchi edi, - debdi Boyo'g'li.